



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

BOSHLANG'ICH TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

XALQARO ILMIIY-AMALIIY ANJUMANI

MATERIALLARI



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА
РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ**

ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ

2021 йил, 1 -2 апрель

Бухоро - 2021

Tayyorgarlik davri o'qishda o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgarlar nutqing eshinish, diqqatni to'plash, til birikmalarini (tovush, bo'gin, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular o'quvchilarni o'qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

O'qishga o'rgatish uchun avvalo o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'gindan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

2. So'z asos qilib olinadi. Analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi: ot. O'qituvchi ot rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini – so'zni aytadi. O'qituvchi o tovushini cho'zib (o-o-o-o t) aytadi va qaysi tovushni cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar o tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o'tkaziladi. O tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng o harfi kesma harfdan yoki rasmi alifbodan ko'rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor beriladi.

3. O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf aralashtirib qo'yiladi bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadilar. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmi alifbodan ko'rsatadilar.

Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi.

O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab, unini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo'gin o'qish o'qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi.

Bunda «Alifbe» sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'ginga bo'lish, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan so'ng xor bilan o'qish, yakka-yakka o'qishdan, shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so'zlarni harf xattaxtasiga bo'ginlarga bo'lib yozish, o'rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo'shimcha so'z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi.

Ma'lumki, «Alifbe» sahifalarida bo'g'in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir bo'gin tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarni belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to'rt tovushdan tuzilgan bo'g'inlarni o'qishga o'rgatish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o~lam, Man—non, tipidagi bo'g'inlarda — o~la:m, Ma: n~ no: n tarzidagi qo'shimcha chiziqdan, bodring, do'st tipidagi bo'g'inda ring, do'st tarzidaga qo'shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So'zlarni o'qishga o'rgatishda bilib o'qitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi.

Umuman olganda, har bir o'qish darsida albatta bo'gin tuzilishi murakkab so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasining takomillashuviga yordam beradi.

O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo'naltiriladi. O'quvchi tushirib qoldirilgan harf va so'zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e'tibor beradi, o'rtoqlariga nisbatan tez topib, o'qituvchining rahmatiga sazovor bo'lishga intiladi.

«Alifbe» darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. Ular shularga mos ohang tanlashni, to'xtash, pauza qilish o'rinlarini belgilab olishni taqozo etadi. Bunda ham o'qituvchining tushuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini izohlashi) va ifodali o'qish namunasini ko'rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qilgan matngina tushunarli tuziladi.

Har bir predmetda bo'lgani kabi o'qish darslarida ham ta'lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi. O'qish darslarida tarbiya o'qilgan matnning ongli o'zlashtirilishiga bog'liq. O'quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o'zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan esa yaxshi inson bo'lish uchun o'qishning zarurligini anglaydi. Shuning uchun ongli o'qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqat qaratish lozim. Masalan, rasmni kuzating, matnda nima haqida gap boradi? Rasmda nima tasvirlangan? Ular orasida bog'lanish bormi?

Matn mazmunini rasmga qarab so'zlab bering.

Yoki: Bolalar qayerga bordilar? Qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi? Ali, Lola nima qildi? Ular qanday lolalar terdilar?

Demak, o'qish o'qiganlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan goya o'qituvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. So'ng so'z va matnlar yod olingan taqdirda ham o'quvchilarni bo'lib qoladi.

O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan -kechirganlarini, taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishga, o'rganishga qiziqish ortadi.

Ongli o'zlashtirishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 51-sahifada uvol, rizq-ro'z so'zlari bor. Ularning ma'nosi ustida to'xtalish, birinchidan, fikrni oydinlashtirsa, ikkinchi tomondan tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarni o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi.

O'qish darslarining uchdan ikki qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

Demak, o'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o'qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi tahrirdagi DTS - 2015-yil. Boshlang'ich ta'lim jurnali 5-son.
2. Rahmatullayev Sh., Xojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. –1995-yil.
3. Abdullayev. Hamroh. –Toshkent, 1996-yil.
4. Abdullayeva K. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T., "O'qituvchi", 1996-y.

HIKOYA O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH

O'.M.Olloqova, BuxDU o'qituvchisi
M.O'.Zaripova, BuxDU talabasi

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya o'qitish orqali o'quvchilarining nutqini o'stirish usullari keltirilgan. Bolani aytib berishga o'rgatish - uning bog'lanishli nutqini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: hikoya, nutq, bog'lanishli nutq, hikoya mazmuni, hayotiy tajriba, ijodiy fikrlash.

Аннотация. В статье представлены методы развития речи учеников посредством рассказывания на уроках чтения в начальной школе. Учителю ребенка рассказывать - значит формировать его связную речь.

Ключевые слова: рассказ, речь, связная речь, содержание рассказа, жизненный опыт, творческое мышление.

Annotation: The article presents the methods by which students can cultivate their speech by teaching the story in primary school reading lessons. To teach a child to tell means to formulate his connecting speech.

Key words: story, speech, connected speech, story content, life experience, creative thinking.

Insonlarni boshqa joyga eltadigan hikoyalar uchun har doim joy bor.

Gyote

Insoniyat rivojlanish taraqqiyotida erishgan eng katta yutuqlari, bu ongi, tafakkuri, nutqi. Ong va tafakkur degan hech qanday moddiylik bilan tenglashtirib bo'lmaydigan ne'mat borki, ahli insoniyat borliqni anglab, moddiy va ma'naviy ne'matlarni yarata oladi. Boshqa elat va xalqlarning ma'naviy va moddiy yutuqlaridan bahramand bo'lish bevosita o'zaro muloqotning mahsulidir. Muloqot vositasi nutq bo'lib, uni rivojlantirish antik davrda ham, hozirda ham ta'lim jarayonining yetakchi vazifasi bo'lib kelmoqda.

Ta'limning har bir bosqichida ta'lim oluvchilar nutqini o'stirishga alohida e'tibor beradilar. Barchamizga ayonki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'langan holda o'stiriladi. Bolalarning nutqi va tafakkurini o'stirish boshlang'ich sinf o'qish fanidan hikoya o'rganish darslarida samarali ishlash imkoniyati mavjud.

Darsda o'qilgan hikoyani o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo'llanadi. O'qilgan hikoyani analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o'qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so'raydi. Natijada

o'qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O'qituvchi bergan savollar yordamida hikoyaning mazmuni aniqlanadi.

Bolaga gapirishni o'rgatish - bu uning izchil nutqini shakllantirishni anglatadi. Bu vazifa maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirishning umumiy vazifasida ajralmas hisoblanadi. So'zlarning izchil shakllarini o'zlashtirish murakkab va uzoq jarayon bo'lib, malakali pedagogik ta'sir va yetakchilikni talab qiladi. Bolaning izchil nutqini rivojlantirish kundalik hayot jarayonida, shuningdek sinfda amalga oshiriladi. Bolani hikoya qilishga o'rgatish ya'ni o'z fikrlarini mustaqil ravishda izchil va ravon bayon etish, o'qituvchi unga aniq so'zlar va iboralarni topishga, jummalarni to'g'ri tuzishga, ularni mantiqiy ravishda bir-biri bilan bog'lashga, ovoz va so'zlashuv normalariga rioya qilishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, o'qituvchi bola nutqining barcha jihatlarini - leksika, grammatika, fonetikasini yaxshilash uchun tizimli va muntazam ravishda ish olib bormog'i lozim.

Bolaning hikoyalari mazmunan turli xil bo'lishi mumkin: o'yinchoqlar va o'yinlar, kundalik hayot obyektlari, bajarilayotgan ish topshiriqlari, boshqa bolalar bilan munosabatlar, tabiat va boshqalar. Bolalar o'zlariga ma'lum bo'lgan narsalar, faktlar, voqealar haqida gapirishlari muhimdir. Shundagina ularning nutqi yanada izchil va ravon bo'ladi. Ta'lim jarayonida bolalarning turli xil hikoyalar yaratish qobiliyatlari shakllantiriladi. Hayotiy mavzulardagi hikoyalar bolaning hayotiy, aniq faktlarni taqdim etishni talab qiladi. O'yinchoqlar, o'simlik va hayvonlar haqidagi hikoyalar bolaning hayot tajibasi bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi, ularning ijodiy fikrlashiga, nutqining ravonlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tavsiflovchi hikoya mavzulari rasmlar bilan tuzilishi mumkin. Ko'pincha, hikoya mazmunining o'quvchilar tomonidan so'zlab berilishi balalarning idrokini, tafakkurini rivojlantiriladi. Shu bilan birga, tavsiflovchi hikoyada o'quvchilar xotirasidagi voqea-hodisa materiallaridan ham foydalanish mumkin. Turli xil hikoyalarni ijod qilish - bolalar uchun nutq faoliyatining eng qiyin turi hisoblanadi. Shuning uchun, o'qituvchi asta-sekin oddiy vazifalarni yanada murakkab, ammo ayni paytda ushbu yoshdagi bolalar uchun mos qilib tuzadi. Bolalar tomonidan egallangan nutq malakalarini doimiy ravishda mustahkamlash, ularni takomillashtirish kerak. O'qituvchi, ayniqsa, bolaning diqqatini jalb qilish kerak bo'lgan narsalarni aytib berishda bolalarda qanday qiyinchiliklar paydo bo'lishini aniq tasavvur qila olishi lozim. O'qituvchining vazifasi o'quvchini tanlangan mavzu bo'yicha hikoyani to'g'ri boshlash va uni jonli, qiziqarli, mantiqiy ravishda ketma-ket yetkazib bera olishga o'rgatishdir. O'quv jarayonida bolaning hikoyasi tinglovchilarga tushunarli, uning barcha qismlari o'zaro bog'langan va tushunarli, izchil bo'lmog'i lozim. Bolalarning bog'lanishli nutqni rivojlantirishning muhim sharti - to'g'ri so'zlashuv va grammatik ko'nikmalarni shakllantirishdir. Shu bilan birga, o'qituvchining hikoyasi har doim qiziqarli, mazmunan rang-barang, qurilishi aniq bo'lishi ularning nutq ko'nikmalarini takomillashtirishda juda muhim.

Odatda, amaliyotda, rasm mazmunini gapirishga o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlar katta qiyinchiliklarga olib keladi. Bolalarning rasmning mazmunini yaxshiroq tushunishi uchun o'qituvchi ularning shaxsiy tajribasidan, rasmdagi tasvirga o'xshash voqealar xotiralaridan foydalanadigan dastlabki suhbatni o'tkazishi kerak. Kirish suhbatidan rasmni ko'rib chiqishga o'tish mantiqan izchil va silliq bo'lmog'i lozim. Savollar yordamida rasmda markaziy tasvirni ta'kidlash kerak: "Rasmda kimni yoki nimani ko'rayapsiz?". Ushbu yosh guruhidagi o'qituvchining savollari asosiy metodik usul bo'lib, ular bolalarga obyektlarning harakatlarini, sifatini, xususiyatlarini eng aniq idrok qilinishiga yordam beradi. To'g'ri, izchil ravishda qo'yilgan savollar rasmni idrok etishning yaxlitligini ta'minlaydi, bolalarga to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi.

O'qituvchining savollari emas, balki bolalarning javoblarini umumlashtiradigan jummalarni tuzish, so'z birikmalarini kengaytirish uchun namuna bo'lib xizmat qiladigan so'zlari ham katta rol o'ynaydi. Rasmni qayta ko'rib chiqishda yangi so'zlar, iboralar bolalar xotirasida saqlanadi. Rasm asosidagi hikoyalar o'qituvchining umumlashtiruvchi hikoyasi bilan yakunlanadi va bolalarga o'qituvchining savollariga va tushuntirishlariga kiritilgan so'zlar va iboralarni yana bir bor tinglash imkonini beradi. Rasm asosidagi hikoyalarda bolalarning nutqini yangi so'zlar bilan boyitish, og'zaki nutqning aniq va hissiy jihatdan mazmunli bo'lishiga e'tibor qaratmoq lozim.

Bolalarning nutqi qiziqish bilan tinglanishi kerak: tabassum bilan yoki boshni qimirlatib uning fikrini ma'qullash, yuz ifodani o'zgartirib turish. Agar bola hikoyani boshlashga qiynalsa yoki bir muddat jim tursa, unga boshqa voqea-hodisalarni eslatish, sevimli mashg'uloti haqida so'rash mumkin. Tasvirni muhokama qilish jarayonida bolaga tushuntirish savollarini berish tavsiya etilmaydi, chunki u hikoyadan muloqotning savol-javob shakllariga o'tishi mumkin. Bolaning nutqini tinglab, uning hikoyasini tahlil qilish va baholash, unga butun guruhni jalb qilish, bolalarning taassurotларini ifoda etadigan savollar

корхонасининг фондидан ноқонуний равишда олинган бензинни ишлатиб юбориш). Айбдорнинг бундай ҳаракатлари, зарурий бел-гилар мавжуд бўлганда, талон-тароаж қилишни ташкил этиши мумкин. Анча миқдордаги зарар деганда, энг кам ойлик иш ҳақининг ўттиз бараваридан юз бараваригача бўлган миқдордаги зарар тушу-нилади (Жиноят кодексининг «Махсус» қисми, VIII бўлимига қаранг). Зарар миқдори етказилган моддий зарарнинг фактик ҳолатидан келиб чиқиб белгиланиши лозим. Агар шахс томонидан ҳаракат содир этилиши натижасида фактик жиҳатдан белгилангандан кам миқдорда зарар етказилган бўлса, бироқ, айбдорнинг нияти анча миқдорда зарар етказилишига қаратилган бўлса, қилмиш айбдорнинг ниятига қараб мулкни қасддан нобуд қилиш ёки зарар етказишга суцқасд қилиш сифатида квалификация қилиниши лозим. Агар мулкни қасддан нобуд қилиш ёки зарар етказиш натижасида ушбу жиноят таркибини қамраб олмайдиган оқибатлар келиб чиқса (масалан, жабрланувчига тан жароқати етказилса), қилмиш жиноятлар жами бўйича квалификация қилиниши керак. Айбдор ўзига тегишли бўлмаган мулкни нобуд қилиш ёки зарар етказиш ҳуқуққа хилофлигини антлаб етади ва мулкдорга ёки мулкнинг бошқа эгасига анча миқдорда зарар етказилиши мумкинлигини кўра билади ва шу билан бирга бундай оқибат келиб чиқишини хоҳлайди ёки бунта онгли равишда йўл қўяди ёхуд улар келиб чиқишига нисбатан бепарво бўлади. Мазкур жиноят мақсади (тўғри қасддан) ва мотивининг мазмуни ғаразли ҳисобланмайди ҳамда қилмишни бошқа турдаги жиноятга (масалан, қўпоровчиликка) айлантирадиганларидан ташқари ҳар қандайи (безорилик, ўч олиш, ҳасад, рашк ва ҳоказо) бўлиши мумкин. Агар шахс мулкни қасддан нобуд қилиш ёки унга зарар етказишни миллатлараро ёки иркий адоват мотивлари бўйича содир этган бўлса ёки мулкка зарар етказиш айбдорнинг мулк тегишли бўлган ўзга шахс ёхуд улардан бири муайян бир ирққа, миллатга ёки халққа тегишлилиги тўғрисида субъектив тасавури асосида содир этилса, мулкни нобуд қилиш сифатида қаралиши лозим. Айнан шахснинг кўрсатилган гуруҳга тегишлилиги ва анъ-аналарни амалга ошириши мулкнинг нобуд қилиниши ва унга зарар етказилишининг асосий сабаби ҳисобланади.

U.Sh. Tog'ayeva. LOYIHAVIY TA'LIM VOSITASIDA "ONA TILI O'QITISH METODIKASI" MODULINI TAKOMILLASHTIRISH	120
M. R. Hamroyeva, O. A. Subhonova. ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISHGA OID METODIK KO'RSATMALAR ..	121
O. III. Axmadov. БУХОРО АМИРЛИГИДА АНЪАНАВИЙ БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ТИЗИМИ ВА УНИНГ ИНҚИРОЗИ	123
D. S. Sidiqova, G.A. Jabborova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHDA INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH	125
U.Sh. Tog'ayeva, M.Sh.Xodjayeva. BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA FANLARARO ALOQADORLIK O'RNATISH.....	126
Sh. N. Qurbonova, N. Razzoqova. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA –TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING YAXLIT TIZIMI SIFATIDA	128
Sh. Y. Yusufzoda, D. F. Safarova. BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILAR MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	129
Sh. Y. Yusufzoda, F T. Egamqulova. GRAFIK MODELLARDAN FOYDALANISH USULLARI ORQALI MASALA YECHISH METODIKASI.....	131
Sh. Y. Yusufzoda, Z. Sh. Narzullayeva. BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA HARAKATGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI	134
M. Sh. Narzillayeva. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA LINGVODIDAKTIKANING O'RNI	135
N. K. Rajabova, M. I. Kamolova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALALAR YECHISHNING METODIK ASOSLARI	138
N.K.Rajabova. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING FAZOVIIY TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI	139
S. R. Ismatov, Sh.Sh. Shukrullayeva. SAVOD O'RGATISH DAVRI YOZUV DARSLARINI O'RGATISH USULLARI.....	140
O'.M.Olloqova, M.O'.Zaripova. НИКОYA O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH	142
III.Хафизов. БОШЛАНГИЧ SINFLARDA ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСИНING ТУЗИЛИШИ ВА УНИ ЎТКАЗИШ МЕТОДИКАСИ	144
N.B.Adizova, F.Ibrohimova. A.AVLONIIY SHE'RLARINING BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'RGANILISHI.....	146
D. Sh. Sidiqova. "MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI" FANINI O'QITISHDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....	148
P. A. Kuldoshov. ЧАПАҚАЙ ЎҚУВЧИЛАРДА ЁЗУВ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	150
N. O. Safarova, H. G. Jumayeva. SAVOD O'RGATISH DAVRIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH.....	153
N.A. Raximova, D.Rustamova. BOSHLANG'ICH SINFLAR TARBIYA TIZIMIDA INNOVATSIYALAR	155
D. Q. Mirzayeva. O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA LUG'AT USTIDA ISHLASH	157
F. M.Xalilova., N. M.Jalilova. BOSHLANG'ICH SINFLAR TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA INDIVIDUAL VA TO'GARAK ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	160
Sh.Y. Yusufzoda, S.Sh.Ortiqova. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MATEMATIK TAFAKKUR VA MATEMATIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	163
N.B.Adizova, S.Farmonova. SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL O'QISH KO'NIKMAALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	164
M. M. Юлдашева. РАЗВИТИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ.....	166
Nurova Y.U. O'ZBEK XALQ PAREMALARIDAGI ETNONIMLAR OMONIMIYASI.....	170
D. A. Axmadova. TIBBIY METAFORALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	173
S. A. Qodirova, D. Askarova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA "ZARBULMASAL" MAVZUSINI O'TISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALAR.....	176
M.X.Ҳақимова, Д. Ғиёсова. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ МАТЕМАТИК РИВОЖЛАНИШ МУАММОСИНИ ЛОЙИҲАЛАШ	177
S. A. Qodirova, D. Askarova. VOQEBAND ADABIY PARCHALAR.....	179
H. B. Adizova. БУХОРО ТУМАН МИКРОТОПОНИМИЯСИДА ОЙКОНИМЛАРНИНГ ЎРНИ .	182
Қ.М. Ёдгоров. 5-7 СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ИНСОНПАРВАРЛИК ҲИС-ТУЙГУЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИНИНГ МАЗМУНИ	184